



Ma'rufjon MUTALLIBJONOV,
Andijon shahridagi Prezident maktabi tarbiya fani o'qituvchisi
E-mail: marufjonmutallibjonov@gmail.com

Qori Niyoziy TPMI profecopu, p.f.d X.Tojiboyeva taqrizi asosida

JADIDLAR MUTAFAKKIRLARMIZNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA KASBIY MA'NAVY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ma'rifatparvar mutafakkirlarning tarbiya haqidagi g'oyalari asosida o'quvchilarda kasbiy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish masalasi yoritiladi. Jadidlarning ma'rifat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, axloq, mas'uliyat va ma'naviy poklik haqidagi qarashlari zamonaviy ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu g'oyalar asosida yosh avlodni kasbiy ma'naviyatga tayyorlashning samarali usullari, innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari jadidlar merosining bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarbligini va o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, tarbiya, ma'rifat, kasbiy ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar, pedagogik meros, o'quvchi tarbiyasi, axloq, vatanparvarlik, mas'uliyat.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ВЗГЛЯДОВ НАШИХ ДЖАДИДОВ-МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация

В статье рассматривается формирование профессионально-нравственных ценностей у учащихся на основе воспитательных идей джадидов – таких мыслителей, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханов и других просветителей. Анализируются их взгляды на просвещение, трудолюбие, патриотизм, моральную чистоту, ответственность и духовное воспитание. Показано, как идеи джадидов могут быть эффективно интегрированы в современный образовательный процесс для развития профессиональной духовности молодежи. Особое внимание уделено педагогическим технологиям и инновационным методам, направленным на воспитание высоконравственных качеств у учащихся.

Ключевые слова: Джадиды, воспитание, просвещение, профессиональная духовность, нравственные ценности, педагогическое наследие, воспитание учащихся, мораль, патриотизм, ответственность.

DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL AND MORAL VALUES BASED ON THE EDUCATIONAL VIEWS OF OUR JADID THINKERS

Annotation

This article examines the development of students' professional and moral values based on the educational ideas of Jadid thinkers, including Mahmudkhodja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and other prominent reformers. The study analyzes their views on enlightenment, diligence, patriotism, moral purity, responsibility, and spiritual education, and evaluates how these principles can be integrated into modern pedagogy. The findings highlight the relevance of Jadid heritage for contemporary education and its importance in cultivating high moral and professional values among students.

Keywords: Jadid thinkers, education, enlightenment, professional morality, moral values, pedagogical heritage, student upbringing, ethics, patriotism, responsibility.

Kirish. XX asr boshlarida o'zbek jadid mutafakkirlari millatning rivoji, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti va ilm-fan orqali taraqqiyotga erishish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ular tarbiyani — inson shakllanishining markaziy omili sifatida ko'rgan va uni zamonaviylik, milliylik hamda kasbiy tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Ayniqsa, kasb egallash, mehnatni qadrlash, ijtimoiy foydali faoliyatga intilish kabi jihatlari jadid pedagogikasining asosiy g'oyalaridan edi.

Bugungi ta'lim tizimida aynan mana shu merosga tayanib, o'quvchilarda kasbiy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash, ularning kasb tanlashdagi ongli yondashuvini shakllantirish, jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish – har qanday zamonaviy ta'lim tizimining muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, bugungi

globallashuv davrida shaxsning ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi, kasbga sadoqatli munosabati, milliy qadriyatlarga asoslangan kasbiy ma'naviyatini shakllantirish zarurati yanada ortib bormoqda.

Kasbiy ma'naviyat – bu insonning o'z kasbiga bo'lgan halol va vijdonli munosabati, mehnatga sadoqat, axloqiy qadriyatlarini faoliyatida ifodalashi, professional etikani anglab yetgan holda o'z kasbini halol bajarishga intilishidir. Bu tushuncha o'z ichiga shaxsiy intizom, mehnatsevarlik, fidoyilik, ijtimoiy manfaatni tushunish, kasbiy mas'uliyat kabi ko'plab fazilatlarini qamrab oladi.

O'zbek pedagogik tafakkurining rivojlanishida, ayniqsa, XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid mutafakkirlari — Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' zotlarning o'rni beqiyosdir. Ular millatni ilm-fan, tarbiya va mehnat orqali

yuksaltirish g'oyasini ilgari surganlar. Jadidlar fikricha, millatni taraqqiy ettiruvchi kuch — bu ma'naviyatli, kasb-hunarga ega, axloqan yetuk insondir. Aynan shu nuqtai nazar, bugungi ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalar bilan hamohangdir.

Jadid pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarni ilmi, madaniyatli va kasb egasi etib tarbiyalashdir. Jumladan, A. Avloniy "ma'naviyat - insonning nuridir, axloq - uning qalbidir, kasb esa - hayotining tayanchidir" degan fikrni ilgari suradi. Fitrat esa farzand tarbiyasida oila, maktab va jamiyatning birgalikda harakat qilishini zarur deb biladi. Bu fikrlar zamonaviy "pedagogik hamkorlik", "kasbiy tarbiya" va "umumiy ma'naviy muhit" kabi tushunchalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Shu boisdan, mutafakkirlar va jadidlarning tarbiya haqidagi ilg'or pedagogik qarashlarini bugungi ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda kasbiy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish yo'llarini ishlab chiqish, bu boradagi metodik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu maqola aynan shunday yondashuv asosida:

jadidlar va mutafakkirlarning tarbiya haqidagi ta'limotlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish,

ularning g'oyalarini zamonaviy tarbiya va ta'lim metodikasiga integratsiyalash,

va nihoyat, o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitishning pedagogik yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek mutafakkirlari-Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi olimlar tarbiyani jamiyatning asosiy tayanchi deb bilganlar. Jumladan:

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "millatni saqlovchi qalqon" deb ataydi. U axloq, kasbga mehr, mehnatsevarlik, halollik, fidoyilik kabi fazilatlarini yoshlarga singdirishni tarbiyaning ustuvor vazifasi deb biladi.

Abdurauf Fitrat "Oila" asarida bolaning kasbiy shakllanishi avvalo oilada boshlanishini ta'kidlaydi. Fitrat asariga ko'ra, har bir bola yoshligidan kasbga yo'naltirilishi, mehnatni qadrlashi lozim.

Munavvarqori esa ta'limni dunyoviy bilimlar bilan boyitish orqali jamiyatga foydali shaxslar yetishtirish tarafdori edi. Uning fikricha, yoshlar kasb-hunar egallashga qodir, aqliy va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi kerak.

Kasbiy ma'naviyat - bu o'quvchining kasbga nisbatan hurmat, halollik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, fidoyilik kabi axloqiy-ruhiy holatlarini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Kasbga muhabbat

Mehnatga mas'uliyat

Halollik va adolatparvarlik

Jamiyat manfaatini ustun qo'yish

Vijdoniy yondashuv

Ushbu fazilatlarini shakllantirish uchun tarbiyaviy jarayonlar milliy qadriyatlarga, jadid g'oyalari asoslariga tayanmog'i lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

jadid mutafakkirlarining asarlarining ba'zi jihatlari (maxsus pedagogik metodlar, darsliklar tarkibi) yetarlicha tizimlashtirilmagan; birlamchi manbalarni tarjima va izohlash ishlariga ehtiyoj mavjud;

jadid g'oyalarini zamonaviy kasbiy ma'naviyat pedagogikasiga moslashtirish bo'yicha empirik tadqiqotlar

(eksperimental ishlar, sinov dasturlari, baholash mexanizmlari) kam;

o'qituvchi kasbiy ma'naviyati va jadid merosining pedagogik integratsiyasi bo'yicha metodik qo'llanmalar va amaliy modullar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu bo'shliqlar mavzuni chuqurroq tadqiq etish uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jadidlar – Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori va boshqalarning asarlari, pedagogik g'oyalari hamda ma'rifatparvarlik faoliyati tarixiy kontekstda o'rganildi. Ularning tarbiya haqidagi fikrlari zamonaviy ta'lim konsepsiyalari bilan solishtirildi. Mahalliy va xorijiy manbalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda jadidchilik harakatiga bag'ishlangan tadqiqotlar tizimli tahlil qilindi. Pedagogik va ma'naviy qadriyatlar bo'yicha nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Jadidlar qarashlarining asosiy g'oyalari – ma'rifat, axloq, mas'uliyat, vatanparvarlik – mantiqiy jihatdan turlarga ajratildi va o'quvchilar kasbiy ma'naviyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida tizimlashtirildi. Jadidlar ta'limiy qarashlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar (kompetensiyaga asoslangan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya modeli) bilan solishtirilib, umumiylik va farqli jihatlar aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida jadidlar – Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori kabi mutafakkirlarning tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari tizimli tahlil qilindi. Ularning ta'lim konsepsiyalarida ma'rifat, axloqiy poklik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi tamoyillar asosiy o'rinda ekani aniqlandi. Adabiyotlar tahlili natijasida ushbu g'oyalar zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiya konsepsiyasi bilan uyg'unlashishi mumkinligi belgilandi.

Empirik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar jadidlar merosiga asoslangan tarbiyaviy topshiriqlarga jalb etilganda ularda mas'uliyat, intizom, mustaqil fikrlash va milliy g'urur kabi fazilatlar kuchayadi. Taqqoslash natijalariga ko'ra, jadidlar g'oyalari asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat o'quvchilarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroqdir.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, jadid pedagogik merosining ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarda kasbiy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda kuchli motivatsion, axloqiy va intellektual omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish – har bir shaxs jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun kasbga ega bo'lishi lozim; Axloqiy yetuklik – kasb tanlashda axloqiy mezonlar muhim;

Mehnatga hurmat – har bir halol mehnat qadrlanishi kerak;

Milliy va diniy qadriyatlarga asoslanish – o'zlikni anglash orqali kasbda mas'uliyatli bo'lish.

Ushbu tamoyillarni zamonaviy metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Tarix, adabiyot va ma'naviyat asoslari darslarida mutafakkirlar asarlarini o'rganish;

"Ustoz-shogird" an'analarni joriy qilish;

O'quvchilarning kasbiy qiziqishlariga mos ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

Rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari orqali kasbiy qadriyatlarini anglashga yo'naltirish.

O'quvchilarda kasbiy ma'naviyatga oid tasavvurlarni boyitish uchun quyidagi metodik usullar samaralidir:

Metodik usul	Maqsadi	Amalga oshirish shakli
--------------	---------	------------------------

Jadidlar asarlarini tahlil qilish	Tarixiy tajribani o'zlashtirish	Darslarda matnli ishlov
Kasb festivallari	Qiziqishni oshirish	Sinfdan tashqari tadbir
Ustoz-shogird loyihasi	Real tajriba asosida o'rganish	Mahalliy ustalar bilan uchrashuvlar
Rolli o'yinlar	Axloqiy holatlarni his qilish	"Kasb tanlayman" mavzusida sahna ko'rinishlari

Xulosa qilib aytganda, jadid va mutafakkirlarning tarbiya haqidagi boy pedagogik merosi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasbiy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu g'oyalar asosida yaratilgan metodik yondashuvlar yoshlarni maqsadli, halol, fidoyi va kasbiga sadoqatli etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi kun pedagogi ushbu merosga tayanib, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashi kerak. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek mutafakkirlari va jadidlarining tarbiya haqidagi qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar – insonparvarlik, axloqiy poklik, kasbga sadoqat, ilm va mehnatga hurmat, shaxsiy mas'uliyat kabi qadriyatlar o'quvchilarni kasbiy jihatdan yetuk, ma'naviy boy, milliy g'oyaga sodiq qilib tarbiyalashda asosiy tayanch sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidlar – Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori kabi mutafakkirlarning tarbiya haqidagi qarashlari bugungi ta'lim jarayoni uchun dolzarb pedagogik manba hisoblanadi. Ularning ma'rifat, axloq, mas'uliyat, vatanparvarlik va ma'naviy poklikka doir g'oyalari o'quvchilarda kasbiy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda kuchli motivatsion va ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, jadidlar merosiga asoslangan tarbiyaviy faoliyat o'quvchilarning mas'uliyati, intizomi va milliy o'zligiga hurmatini sezilarli

ravishda oshiradi. Jadidlar tarbiyani jamiyat taraqqiyotining omili deb baholaganlar;

Ular kasb tanlashni inson axloqiy kamolotining muhim bosqichi sifatida ko'rganlar;

Bugungi o'quvchilarda kasbiy ma'naviyatni shakllantirishda jadidlarning g'oyalari samarali metodik negiz bo'la oladi;

Tarbiyaviy jarayonlarda milliy merosni zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Takliflar. Jadidlar merosini o'quv dasturlariga integratsiya qilish – Tarbiya darslari, kelajak soatlari va maxsus loyihalarga jadidlarning pedagogik qarashlarini kiritish.

O'qituvchilar malakasini oshirish – Pedagoglar uchun jadidchilik merosi va ma'naviy tarbiya bo'yicha maxsus seminar va treninglar tashkil qilish.

Interfaol metodlardan foydalanish – Jadidlar g'oyalari asoslangan rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, keyslar yordamida o'quvchilarda axloqiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish.

Milliy-ma'naviy loyihalar yaratish – "Jadidlar izidan", "Ma'rifat saboqlari", "Avloniy o'g'itlari" kabi ta'limiy loyihalarni joriy etish.

Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish – Jadidlarning oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari asosida ota-onalarga metodik tavsiyalar berish.

Zamonaviy raqamli platformalarni qo'llash – Jadidlar merosiga bag'ishlangan audiokitoblar, animatsiyalar, qisqa videolar yaratish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.

ADABIYOTLAR

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
2. Behbudiy, M. Maktab va madrasalar haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. Fitrat, A. Rahbari najot. – Toshkent: Fan, 1992.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Milliy tarbiya masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
5. Qosimov, B. Jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Abdullayeva, N. Ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
7. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
8. Hoshimov, K. O'zbek ma'rifatchilari pedagogik qarashlari. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
10. UNESCO. Ethics Education Framework. – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
11. Noddings, N. The Ethics of Education. – New York: Teachers College Press, 2013.
12. Dewey, J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
13. Solijonov, A. Jadid pedagogikasining zamonaviy talqini. – Toshkent: Ma'rifat, 2020.
14. G'afurov, U. Milliy tarbiya konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
15. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida Qonun (yangi tahrir) – Toshkent, 2020.